

Yuridik shaxslar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan xususiy tadbirkorlarga telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha SHARTNOMA № 1

Kitob tuman

2022 yil «24» yanvar

Bundan keyin "Operator" deb nomlanuvchi telekommunikatsiya operatori (vakolatli shaxs)

Kitob Telekommunikatsiya boglamasi

(операторнинг номланиши)

«Uzbektelekom» AK «Qashkadaryo» filiali

(litsenziya bergan tashkilotning nomi)

tomonidan berilgan litsenziya va Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi

Diyorov Xusniddin Muxammadiyevich

(rahbarning mansabi, ism-familiyasi)

timsolida bir tomondan,

Yuridik shaxs,

Byudjetdan mablag oluvchi tashkilot nomi: Kitob Axborot-kutubxona markazi

Manzili: Istiglol 54

Rahbar, F.I.Sh. Xurramova Rayhon
Gudratovna

bundan keyin "Abonent" deb nomlanuvchi ikkinchi tomondan quyidagi shartnomani shu haqda tuzdilar

1. SHARTNOMA PREDMETI

Operator telefon aloqasining universal (asosiy) va qo'shimcha xizmatlarini ko'rsatish, Abonet esa mazkur xizmatlardan foydalanish, xamda xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.1. Abonent toifasi - byudjet

1.2. Shartnomaning tuzilgan vaqtidagi umumiy yillik baxosi 90000
(to'g'ron ming) sumni tashkil etadi.

2022 yil jami	1 - chorak			2 - chorak			3 - chorak			4 - chorak		
	yanvar	fevral	mart									
byudjet	30000	30000	30000									

(сумда)

1.3. Byudjet tashkilotining yil davomida smeta xarajatlariga kiritiladigan uzgarishlar doirasida xizmat kursatuvchi, xizmat oluvchi va xizmat xakini tulovchilar tomonidan uzaro kelishilgan holda shartnoma summasiga uzgartirishlar kiritishga xaklidir.

2. OPERATORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Operatorning majburiyatlari:

- 2.1.1. Belgilangan sifat darajasida telefon aloqasi xizmatlarini o'z vaqtida ko'rsatish.
- 2.1.2. Ommaviy axborot vositalarida, Internet, aholi gavjum joylarda, elonlar berish yordamida korxonada faoliyati, yangi ATS larni ishga tushirish, yangi xizmat turlari, telekommunikatsiya xizmatlari uchun belgilangan tariflarning o'zgarishi va bu xizmatlarni ko'rsatish tartiblari haqida xabar berish.
- 2.1.3. Universal xizmatlarga tariflar o'zgarganligini kamida 15 kun oldin ommaviy axborot vositalarida elon qilish.
- 2.1.4. Abonentning aybisiz telefon aloqasi buzilganda abonent tomonidan tamirlash byurosiga talabnoma tushgan vaqtdan boshlab abonent uskunasi ishlamagan kunlar uchun abonent to'lovlarini qayta hisoblab chiqish. Qayta hisob-kitoblar ma'lumot ro'yxatga olingan kundan etiboran soat 00.00 dan boshlab to'liq sutkalar uchun amalga oshiriladi. Texnik sabablarga ko'ra abonent raqamining o'zgarishini kamida 10 kun oldin abonentga yozma ravishda malum qilish. O'rnatilgan tartibda mahalliy telefon so'zlashuvlari to'g'risidagi malumot-rasshifrovka (detalizatsiya) ni qo'shimcha to'lov evaziga Abonentga berish.
- 2.1.5. Abonent tomonidan sotib olingan telematik xizmatlar (telefaks, vedeoteks va hokazolar) ning oxirgi uskunalarini shartnomaga qo'shimcha kiritgan holda (8-bo'limga binoan) ro'yxatdan o'tkazish.
- 2.1.6. Operator, shuningdek, "Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini" da belgilab berilgan boshqa bir qator majburiyatlarga ham ega (bundan keyin matnda "Qoidalar").
- 2.1.7. Operator kursatilgan xizmatlar xisob-varak fakturalarini xar oyda byudjet tashkilotiga takdim etib borish majburiyatini oladi.

2. Операторнинг ҳуқуқлари:

- 2.2.1. Yangi telefon stansiyalari ishga tushishi va telefon tarmoqlari rekonstruksiya qilinishi munosabati bilan amaldagi "Qoidalar"ga muvofiq Abonentning ruxsatisiz, ammo unga o'z vaqtida xabar bergan holda, telefon raqamini bepul o'zgartirib qo'yish.
- 2.2.2. Operator abonent liniyalariga tegishli sertifikatini bo'lmagan uskunalari (telefon apparatlari, telematik xizmat uskunalari, axborot uzatgichlar, radiotelefonlar, radiouzaytirgich, PK, AON va boshqalar)ni o'chirtirishni operatorning texnik komissiyasi tomonidan dalolatnoma tuzilgandan so'ng Abonentdan talab qilish.
- 2.2.3. Quyidagi hollarda abonent uskunasi telefon tarmog'iga ulanishini to'xtatish:
- mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi uchun 4.6., 4.6.1.-bandlarga asosan aloqa xizmatlari to'lovlari to'lanmaganda (bunda telefon aloqasini uzish haqida abonent kamida 3 kun oldin telefon bilan ogohlantirilishi zarur);
 - abonent tomonidan oxirgi qurilmalarni ishlatish qoidalari buzilganda va buning natijasida operator kommutatsion uskunalarning normal ishlashiga xalaqit bergan hollarda;
 - 3.1.7. - band buzilganda, operator texnik komissiyasining dalolatnomasi tuzilib, buzilishlar bartaraf etilgunga qadar. Shartnomani qayta tiklash va oxirgi qurilmalarni ulash belgilangan tartibda, kamchiliklar tuzatib bo'lingandan so'ng va Abonent tomonidan mahalliy, shaharlararo, xalqaro telefon aloqasining telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun haq to'langandan keyin amalga oshiriladi (aloqa xizmatlaridan foydalanish to'xtatib qo'yilgan muddat ham kiradi).
- 2.2.4. Agar Abonent hisob-kitob davridan keyin 2 oy davomida telefon aloqasi xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirmasa yoki 3.1.7.-bandlarni buzishga yo'l qo'ysa, ushbu shartnoma bir tomonlama bekor qilinadi.
- 2.2.5. Operator "Qoidalar"da belgilab berilgan boshqa bir qator huquqlarga ham ega.

3. ABONENTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 3.1. Har chorakda kamida 1-marta Operator bilan o'zaro hisob-kitoblarni aniqlash maqsadida solishtirish dalolatnomasi tuzish.
- 3.2. Operator hisobidagi yoki u tomonidan ta'mirlanadigan Abonent foydalaniladigan uy telefon simlari va boshqa uskunalarni ishga yaroqli holatda saqlash. Abonentga tegishli bo'lgan yoki Abonent tomonidan ijaraga olingan telekommunikatsiya vositalarining texnik me'yorlarga muvofiq bo'lishini ta'minlash.
- 3.3. Aloqa buzilishlari haqida telekommunikatsiya bog'lamasining ta'mirlash byurosiga o'z vaqtida xabar berish.
- 3.4. Korxonaning nomi, rekvizitlari o'zgarganda, xonani ijaraga berish bo'yicha, bir oy muddat ichida yozma ravishda, sanasini ko'rsatgan holda Operatorga xabar qilish va amaldagi tariflar bo'yicha to'lovlar evaziga shartnomani qayta rasmiylashtirish yoki uni bekor qilish. Ijara muddati tugashi bilan yoki ijaraga berish bo'yicha shartnoma bekor qilinadigan bo'lsa, telefon aloqasi xizmatini ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnoma ijaraga oluvchidan ijaraga beruvchi bepul qayta rasmiylashtirilishi mumkin. Ijaraga beruvchi ijara shartnomasini bekor qila turib, ijaraga oluvchining Operator oldidagi qarzlarini uzishini nazorat qiladi va qarzlari mavjud bo'lgan taqdirda belgilangan tartibda javobgar bo'lib hisoblanadi.
- 3.5. Abonentning aloqa "Qoidalar"ini qay darajada bajarayotganini yoki abonent buyurtmasiga asosan ta'mirlash uchun kelgan Operator xodimini (agar u rasmi yopishtirilgan, korxonaga muhri bosilgan, amal qilish muddati ko'rsatilgan guvohtonoma ega bo'lsa) binoga kirishga ruxsat etish. Bunda Operator xodimida bajariladigan ishlar naryadi ham bo'lishi zarur.
- 3.6. Abonent uskunasi pullik xizmat ko'rsatish uchun taksonom sifatida, Internetga kirish va hokazo maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Operator tomonidan ajratilgan telefon raqamlaridan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish "Qoida"ga belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu band buzilgan taqdirda kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Abonent tomonidan mazkur holatlar takrorlanganda shartnoma bir tomonlama bekor qilinadi.
- 3.7. Faqat sertifikatlangan telefon apparatlari va boshqa uskunalardan abonent uskunasi sifatida foydalanish. Muvofiqlik sertifikatini bo'lmagan, telefon raqamini avtomatik aniqlash uskunasi (AON)dan foydalanmaslik.
- 3.8. Abonent telefonlaridan va boshqa oxirgi qurilmalardan amalga oshirilgan mahalliy, shaharlararo, xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun to'lovlarni to'liq 4.3 - bandga asosan amalga oshirish.
- 3.9. Abonentlik qurilmasini o'zboshimchalik bilan o'rnatish va parallel telefon apparatlari yoki boshqa radio aloqasi, telematik xizmatlar va axborot uzatgichlariga ulash ta'qiqlanadi. Bu qurilmalarni ulash operatorga ma'lum qilinib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lgach amalga oshiriladi. Agar, Abonent tomonidan o'zboshimchalik bilan abonent liniyasiga ulangan qurilmaning ulanish vaqtini aniqlash imkoniyati bo'lmasa, abonent to'lovi joriy yilning boshidan hisoblab undiriladi.
- Radiotelefonlar va boshqa radioelektron vositalar (10 mVt quvvatli simsiz telefonlar bundan mustasno) abonent qurilmalardan foydalanishga ruxsatnoma olinishi zarur.
- 3.10. Telekommunikatsiya tarmoqlari ish sifatini pasaytirishga yoki ularni shikastlanishiga qaratilgan hatti-harakatlarga yo'l qo'yilmasligi zarur.
- 3.11. Abonent "Qoidalar"da belgilab berilgan boshqa bir qator majburiyatlarga ham ega.
- 3.12. Abonent kursatilgan xizmatlar xakini tulash uchun "Tulovchiga" xar oyda xisob-varak fakturalar nusxasini yetkazib beradi.
- 3.13. Abonent fakatgina xarajatlar smetasida aloqa xizmatlari uchun 2022-yilda ajratilgan mablaglar doirasida shartnomaning 1.2 bandida kursatilgan (byudjet xisobidan) tulovni amalga oshirish majburiyatini oladi.
- 3.14. Abonent tomonidan byudjetdan mablag oluvchiga ko'rsatiladigan telefon aloqasi xizmatlariga qonunchilik asosida belgilab beriladigan Uzbekiston Respublikasida amaldagi tariflar bo'yicha haq to'lanadi.
- 3.15. Telekommunikatsiya xizmatlari uchun to'lovlar, naqd pulsiz byudjet tashkilotining xarajatlar smetasida kuzda tutilgan mablaglar doirasidan chikmagan xolda mazkur shartnomaning 1.2. bandidagi byudjet xisobidan tulanadigan katorida kursatilgan summa asosida xar chorakning uchdan bir qismi doirasida oyma - oy tulovni amalga oshiradi.

4. XIZMATLARGA HAQ TO'LASH.

4.1. Abonent smeta xarajati mablaglari doirasida shartnomaning 1.2 bandiga binoan joriy oy uchun oldindan 100 % tulovni xar oyning 20-sanasi gacha xizmat xakini tulaydi, smetada ajratilgan mablaglardan ortikcha kursatilgan xizmat uchun byudjet tashkiloti uzining maxsus xisob-rakamidan tulashni uz zimmasiga oladi.

4.2. Mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi uchun to'lovlar:

- oldindan to'lov (bunak) yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.3. Oldindan bunak tariqasidagi to'lovlar kamida 1 oy oldin, lekin 12 oydan ko'p bo'lmagan muddat uchun amalga oshirilishi mumkin.

4.4. Telefon aloqasi xizmatlari uchun oldindan to'langan bunak summasi operatorning billing tizimi tomonidan quyidagi ketma-ketlikda taqsimlanib to'lanadi:

- abonentlik to'lovi va qo'shimcha xizmat turlari;
- hisoblagichlar;
- shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar.

Ushbu bandda ko'rsatilgan xizmatlarga tariflar oshgan taqdirda, ular bo'yicha hisob-kitoblari bunak summasi tugagunga qadar amalda bo'lgan avvalgi tariflar bo'yicha amalga oshiriladi. (Agar bu xizmatlar bo'yicha to'lovlar universal xizmatlarga tariflarning o'zgarishi to'g'risida e'lon berilishidan oldin amalga oshirilgan bo'lsa).

4.5. Mahalliy so'zlashuvlar (vaqtbay asosida to'lov tizimi joriy etilganda), shaharlararo va xalqaro telefon aloqasidan foydalanilganligi uchun to'lov hisob varag'iga asosan (axborot uzatish va telematik xizmatlardan foydalanilganligi uchun to'lovlar ham shunga kiradi), hisob varag'ida ko'rsatilgan sanadan boshlab 3 bank kuni ichida amalga oshiriladi.

4.2.1. Hisob-kitob qilingan oydan keyingi oyning 10-sanasi gacha abonent "Operator"ning abonentlar bo'limiga ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari uchun hisob-varaq fakturasini olish uchun kelishi kerak, ko'rsatilgan muddatda kelmagan taqdirda telefon o'rnatilgan tartibda o'chirib qo'yiladi.

4.2.2. Abonent xohishiga ko'ra operator shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar bo'yicha ma'lumot (rasshifrovka)ni elektron variant(fayl holati)da berishi mumkin.

4.2.3. Abonent shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar bo'yicha ma'lumotni takroriy so'ragan hollarda undan qo'shimcha ravishda 300 so'm, agar elektron variant(fayl holati)da bo'lsa 100 so'm (har bir kompyuter varag'i uchun) olinadi. Mazkur to'lovlar aloqa xizmatlari tariflari o'zgariganida qayta ko'rib chiqiladi.

4.6. Belgilangan muddatda aloqa xizmatlari to'lovlari to'lanmasa, telefon o'chirib qo'yiladi, bunda operator shartnomani bekor qilish va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq qarzlarni undirib olish huquqiga ega.

Agar Abonent hisob-kitob davridan keyingi 2 oy davomida telekommunikatsiya xizmatlari uchun, shu jumladan, telefon o'chirib qo'yilgan vaqt uchun qarzlarni to'lama, Operator "Abonent" bilan kelishilgan xolda shartnomani bekor qilish va qarzlarni o'rnatilgan tartibda undirib olish huquqiga ega. Qaytadan telefon yoki boshqa oxirgi qurilmani o'rnatish ariza berilib tegishli to'lovlar amalga oshirilgach amalga oshiriladi.

4.7. Agar abonent to'lanishi lozim bo'lgan pul miqdoriga, so'zlashuv vaqti va bu so'zlashuv uning telefoniga tegishli ekanligiga norozi bo'lsa, u hisob varag'ini olgandan so'ng 30 kun davomida raddiya yozishi mumkin. 30 kundan so'ng e'tirozlar qabul qilinmaydi. Tekshiruv natijalari Abonentni qanoatlantirmasa sudga murojaat qilishi mumkin.

4.8. Ushbu shartnomaning 4.8-bandi bo'yicha tekshiruv o'tkazilayotganda telefon shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlarga chiqish kodi(8)siz ishlatib qo'yiladi.

4.9. Har oyning 1-chi kuni holatida debitor qarzdorlik mavjud bo'lsa, "Operator" qarzdorlik summasining 0,1% miqdorida to'lovning har bir kechiktirilgan kuni uchun, bu qarzdorlik to'liq undirib olinguncha qadar penya hisoblaydi.

4.10. Abonentning aybi bilan telefon yoki boshqa oxirgi qurilma ishlagan paytda ulardan foydalanish bo'yicha abonent to'lovlari to'liq miqdorda undirib olinadi.

4.11. Xalqaro va shaharlararo avtomatik telefon aloqasidan foydalanilganda, to'lanishi lozim bo'lgan so'zlashuv vaqti so'zlashuv boshlangan vaqtdan hisobga olinadi. Telefonga ulangan biror bir texnik uskuna (faks, avtomatik javob beruvchi, raqamni aniqlovchi va hokazolar) bilan so'zlashuv amalga oshirilganda to'lanishi lozim bo'lgan so'zlashuv vaqti ana shu uskunalar ishga tushgan paytdan boshlab hisobga olinadi.

4.12. **A. Byudjet tashkilotlar uchun 1 oylik telefon tulovi:**

- Shaxar telefoni uchun: 1800 sum
- Kishlok telefon uchun: 1900 sum
- 1 ta telefon Kitob shaxri ichida xar oyda 180 minutdan oshgan xar bir minut vakt uchun 4 (turt) sum, miqdorida pul tulanadi.

B. Shaharlararo suzlashuvlar uchun kuyidagicha tarif

- 100 km gacha - 40 sum
- 101 km dan 300 km gacha - 55 sum
- 301 km dan 600 km gacha - 70 sum
- 601 km dan yukori - 90 sum

Mijozlarni schetida avans summasi bulmasa xar bir shaharlararo suzlashuvlar uchun kushimcha 25 sumdan xisoblanadi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Nizolarni hal etish chog'ida tomonlar o'zaro kelishuyga binoan ish tutadilar.

5.2. Tomonlar o'zaro kelisha olmagan hollarda, nizolar Xo'jalik sudida hal etiladi.

6. TOMONLARNING JAVOGBARLIGI

6.1. Ushbu shartnoma shartlarini tomonlar bajarmagan taqdirda ularning mas'uliyati O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik Kodeksi", "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risi"gi qonunlari, "Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidali" va O'zbekiston Respublikasining boshqa bir qator amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tomonlarning javobgarliklari ko'rib chiqiladi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Tomonlarning xohish-istagiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan hollarda (tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoitlari, hukumat chora-tadbirlari, hokimiyat idoralari qarorlari, harbiy to'qnashuvlar, ichki tartibsizliklar va boshqa holatlarda) tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarmasliklari ushbu shartnomani ijro etish buzilgan deb hisoblanmaydi, tomonlarning shartnomani bajarish muddatlari yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlar bartaraf etib bo'lingunga qadar keyinga suriladi.

7.2. Fors-major holatlariga tayanib ish ko'ruvchi tomon vakolatli davlat organining tasdiqlangan tegishli hujjatini taqdim etishi kerak.

8. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

8.1. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tomonlarning roziligiga ko'ra qo'shimcha Bitimni rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Bitim u yozma shaklda bo'lgandagina va tomonlar uni imzolaganlaridagina haqqoniydir.

Tomonlarning shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlari uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, ular albatta inobatga olinishi zarur.

8.2. Shartnoma qonunchilik o'zgartirishda, "Qoidalar"da va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1. Ushbu shartnoma tuman Gaznachilik tomonidan ruxsatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amalda bo'ladi.

9.2. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning kelishuviga muvofiq;
- tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan taqdirda;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

9.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.

10. TOMONLAR REKVIZITI

«Operator»

Kitob Telekom boglamasi

(ijrochining nomi)

Manzili : B.Ipak yuli 3 uy

tel/faks: 54-25-360

x/r: 20210000204074838386


bank nomi : Karshi Alokabank

MFO : 00401 INN : 203366731

IFUT : 60100

Raxbar : X.M.Diyorov


(F.I.Sh.)



talablariga mos keladi

Xukukshunos;

(imzo)



«Abonent»

Kitob «Abonent»

(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)

manzili : hstiglol 54

tel/faks : 91-473-66-92

sh.x.r: 100022860102327082102134001

INN : 306705069 IFUT : _____

Uz.Res.Moliya Vazirligi Gaznachiligi

x/r : 2340200300100001010

bank nomi : Toshkent Markaziy bank XKKM

MFO: 00614 INN: 201122919

Raxbar : R. Xuramova

(imzo)

F.I.Sh



bilan

Ushbu 2022-yil 24 yanvar 24 " yanvar" dagi № 1 sonli Raxbar Xuramova tuzilgan shartnoma O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi 670-1 sonli "Xujalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi tugrisida"gi Konuni talablariga mos keladi

Raxbar: R.Xamrayev

(F.I.Sh)

IFUT:

IFUT: